

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XODJIYEV SHUXRAT MAXMUDOVICH

**O‘SIMLIK MOYLARI YOG‘ KISLOTALARINI NIKEL-MIS ASOSLI
QO‘SHIMCHALI KATALIZATORLARDA GIDROGENLASH JARAYONINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.17- Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash
hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2025

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора технических наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Technical Sciences (DSc)

Xodjiyev Shuxrat Maxmudovich

О‘simlik moylari yog‘ kislotalarini nikel-mis asosli qo‘shimchali katalizatorlarda gidrogenlash jarayonini takomillashtirish..... 3

Ходжиев Шухрат Махмудович

Совершенствование процесса гидрогенизации жирных кислот растительных масел на катализаторах с добавками на никель-медной основе..... 25

Khodjiev Shukhrat Makhmudovich

Improvement of the process of hydrogenation of fatty acids of vegetable oils on catalysts with nickel-copper-based additives..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XODJIYEV SHUXRAT MAXMUDOVICH

**O‘SIMLIK MOYLARI YOG‘ KISLOTALARINI NIKEL-MIS ASOSLI
QO‘SHIMCHALI KATALIZATORLARDA GIDROGENLASH JARAYONINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.17- Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash
hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2025

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/T276 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bmti.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Majidov Qahramon Halimovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedov Azimjon Normo‘minovich
texnika fanlari doktori, professor

Mamatxanov Ahmadxon Umarxonovich
texnika fanlari doktori, professor

Yo‘lchiyev Asilbek Baxtiyorovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil ____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84, Faks: (+99865)223-78-84, E-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil ____ - ____ kuni tarqatildi.

(2025-yil ____ - ____ dagi № ____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.S. Fozilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

A.T. Oltiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

I.I. Isabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari
doktori, professor

KIRISH (texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda so‘nggi yillarda o‘simlik moylari va undan tayyorlangan mahsulotlarga, xususan, gidrogenizatsiyalangan yog‘larga bo‘lgan talab ortib bormoqda. 2023 yilda o‘simlik moylari ishlab chiqarish AQSh da 79,8 mln.t, Rossiyada 10,0 mln.t, Xitoyda 36,0 mln.t, Markaziy Osiyoda - 70,0 mln.t, jumladan, O‘zbekistonda 0.25 mln.t, Yevropada 26,0 mln.t¹ ni tashkil qilgan. Indoneziya va Malayziya asosan margarin mahsulotlari va qandolat yog‘larini ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan qattiq o‘simlik moyining (palma va palma yadro) asosiy eksportchilari bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga yuqori sifatli gidrogenizatsiyalangan yog‘larni ishlab chiqish, yog‘-moy sanoatining asosiy tarmoqlaridan hisoblanadi. Yog‘larni gidrogenizatsiyalash jaryonida energiya sarfi yuqori bo‘lgan texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda. Shunga ko‘ra paxta moyining yog‘ kislotalarini gidrogenizatsiyalash texnologiyasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda nikel-mis asosida tayyorlangan katalizatorlarni qo‘llash orqali samarali texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda o‘simlik moylari va yog‘larni katalitik modifikatsiyalash, yangi turdagi katalitik tizimlardan foydalangan holda ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiyalash hamda texnologik jarayonlarni matematik modellashtirish usullari asosidagi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada trans-izomerlangan yog‘ kislotalarining eng kam miqdorini saqlash, imkoniyatini beruvchi, yangi avlod katalizatorlarini qo‘llash orqali yuqori sifatli gidrogenlangan yog‘larni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yog‘-moy sanoati amaliyotida o‘simlik moylari va yog‘larni katalitik modifikatsiyalashning eng keng tarqalgan usuli bu har xil turdagi katalizatorlardan foydalangan holda gidrogenlash texnologiyasiga oid izlanishlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar, asosan, o‘simlik moyining asosiy turi bo‘lgan paxta moyini katalitik modifikatsiyalash ilmiy tadqiqotlarida va amaliyotida nikel va mis asosidagi katalizatorlar tavsiya etilib, bunda dastlabki katalizatorlarning gidrogenlash xossalari o‘zgartiruvchi omillar sifatida turli promotorlarni qo‘llash jarayonlariga qaratilgan. Yangi O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida (2017-2030 yy.) “...tarmoqlarni rivojlantirish, sanoatni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish, energiya va resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash import o‘rnini bosuvchi raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish...”² kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan katalizatorlardan foydalangan holda gidrogenlangan yog‘larni ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 24-oktabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmon va qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda

¹ <http://www.USDA.com>

² http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036

belgilangan vazifalarini amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni innovatsion rivojlantirish agentligining VII. “Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Katalitik tizimlardan turli katalizatorlarni qo‘llab maqsadli yog‘- moy mahsulotlarini olish texnologiyasiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar xorijiy va respublikaning yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalarida, jumladan, Australian Institute of Petroleum (Avstraliya), Delft University of Technology (Niderlandiya), French Petroleum Institute (Fransiya), West Virginia University (AQSh), The University of Tokyo (Yaponiya), Exxon BASF (Germaniya), Ozarbayjon neft-gaz ilmiy-tadqiqot instituti (Ozarbayjon), Butunrossiya Yog‘lar ilmiy-tadqiqot instituti, Ufa davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasi A.V.Topchiev nomidagi neft-kimyo sintezi instituti (Rossiya), O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va anorganik kimyo ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti va boshqa ilmiy muassasalarda olib borilmoqda.

Jahonda yog‘- moylarni gidrogenizatsiyalash texnologiyasini takomillashtirish va bu maqsad uchun unumli katalizatorlardan foydalanib, oziq-ovqat sanoatida qo‘llaniladigan iste‘mol yog‘larini olish yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalarga erishilgan: qayta tiklanadigan yog‘ va moylarni tanlab qisman gidrogenlash uchun katalitik jarayonlar ko‘rib chiqish va kimyoviy oraliq mahsulotlarni sintez qilish uchun standartlashtirilgan substratlarni ishlab chiqarish uchun qo‘llanilish texnologiyasi *такoмиллаштирилган* (TU Dortmund universiteti, Dortmund, Germaniya); barqaror vodorod manbalari sifatida metanol va etanoldan foydalangan holda a,b-to‘yinmagan ketonlarni to‘yingan ketonlarga va alkenlarni alkanlarga tanlab kamaytirishga qaratilgan katalitik uzatish gidrogenlash texnologiyasi ishlab chiqilgan (CSIR-Markaziy tuz va dengiz kimyoviy moddalari tadqiqot instituti, Gujarat, Hindiston), tabiatga mos va katalizatorsiz mikroto‘lqinli plazma texnologiyasidan foydalangan holda palma yog‘ini qisman gidrogenlash orqali kam trans izomerlangan margarin mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan (Chulalongkorn universiteti, Bangkok, Tailand).

Dunyoda turli xil o‘simlik moylari va yog‘larni gidrogenlash texnologiyasida samarali katalizatorlardan foydalanib ishlab chiqarishga oid izlanishlar bo‘yicha qator ilmiy ishlar, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: jumladan, yog‘ va moylarni gidrogenlash jarayonida katalizatorlarning faolligi, gidrogenlash qobiliyati yuqoriligi, gidrogenlash katalizatorlarni mahalliyashtirib turli maqsadlar uchun iste‘molbop qattiq yog‘lar olish, tarkibida trans izomerlangan yog‘ kisoltalari miqdorini kamaytirib oziqaviy xavfsiz maqsadli qandolat yog‘larini ishlab chiqarish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur mavzu bo‘yicha M. Hasman, J.J Cray, M.F. Kozempel, S.Adhikari, R. Larsson, Ye. Szukalska, Ten Brink, A.A. Abduraximov, S.A. Abduraximov, K.A. Jubanov, N.S. Arutyunyan, F.B.

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: http://www.newchemistry.ru /printletter.phptn_id=4920, <http://www.neftelib.ru/neft-slovar-list/r/656/index.shtml>, webmaster: webmaster@ogbus.ru, <http://www.topreg.ru/ article/5/> va boshqa manbaalar.

Bijanov, I.I. Ioffe, M.A. Ginzburg, A.I. Glushenkova, A.B.Fasman, Yu.K. Qodirov, N.L. Melamud, A.G. Sergeev, D.V. Sokolskiy, I.M. Tovbin, B.N. Tyutyunnikov, A.A. Shmidt, Q.X. Majidov, N.Q. Majidova, K.K. Sattorov, I.B. Isabaev va boshqa olimlarning o‘simlik moylari va yog‘lar, xususan, paxta, kungaboqar, soya va boshqa moylar uchun gidrogenlash katalizatorlarini yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ma’lum.

Ushbu soha olimlari va yetakchi mutaxassislari tomonidan o‘simlik moylari va yog‘larni kukunsimon va turg‘un katalizatorlar yordamida katalitik gidrogenlash texnologiyasi takomillashtirildi; oziq-ovqat moylarini ishlab chiqarishning texnologik sharoitlari optimallashtirildi; gidrogenlangan oziq-ovqat yog‘larni ishlab chiqarishda katalizatorlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Shu bilan birga, yog‘ va moylarni gidrogenlash texnologiyasini rivojlantirishga yetarli e‘tibor berilmagan, masalan: nikel-mis katalizatorlarida paxta moyini gidrogenlashning ilmiy asoslangan texnologiyasi ishlab chiqilmagan; yuqori qattqlikdagi ozuqaviy yog‘larning sifat va fizik-kimyoviy xossalarni shakllantirishda texnologik sharoitlar va katalizatorlar tabiatining ta’siri o‘rganilmagan; olingan mahsulotlarning ozuqaviy qiymati va xavfsizligini shakllantirishda foydalaniladigan katalizatorlarning tabiati va tashkiliy tarkibining o‘rni aniqlanmagan hamda asoslanmagan; paxta yog‘ini gidrogenlash jarayonlarini modellashtirish masalalari o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq YoA9-5 “Yuqori sifat va oziq-ovqat xavfsizligi ko‘rsatkichlariga ega gidrogenlangan yog‘larni ishlab chiqarish yo‘nalishlarini rivojlantirish” (2020-2025 yy.), A-9-8 “Yuqori sifat va oziq-ovqat xavfsizligi ko‘rsatkichlariga ega yog‘larni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha yangi ishlanmalar” (2022-2024 yy.), PPI-9 “2020-2025-yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlovchi yuqori samaradorlikka ega texnologiyalar asosida mahalliy noan’anaviy xom ashyo asosida yog‘-moy mahsulotlari sifatini oshirish va assortimentini kengaytirish” loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘simlik moylari yog‘ kislotalarini nikel-mis asosli qo‘shimchali katalizatorlarda gidrogenlash jarayonini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

moylar va yog‘ kislotalarini gidrogenlash uchun yangi katalizatorlarni yaratish;
moylar va yog‘ kislotalarini gidrogenlash jarayonlari va katalizatorlarini modellashtirish;

yangi avlod katalizatorlarida yog‘ kislotalarini gidrogenlashning asosiy ilmiy va amaliy o‘zgarishlarni o‘rganish;

o‘simlik moylarini gidrogenlashda katalitik metallarning o‘rni va ahamiyatini aniqlash;

o‘simlik moylarining yog‘ kislotalarini nikel-mis asosli qo‘shimchali katalizatorlarda gidrogenlashning texnologik sharoitlarini ishlab chiqish va optimallashtirish;

ozuqaviy yog‘larni ishlab chiqarishda yog‘ kislotalarining katalitik gidrogenlangan mahsulotlarini qo‘llash, tayyor mahsulotlarning yuqori sifati va ozuqaviy xavfsizligini ta’minlash;

yangi qo‘shimchalar va promotorlar asosida katalitik tizimlarni kengaytirish;

ishlab chiqarish sinovlari va ilmiy-texnikaviy ishlanmalar natijalarini ishlab chiqarish sharoitiga joriy etish.

Tadqiqotning ob'ekti bo'lib nikel, mis va turli promotorli qo'shimchalarga asoslangan yog' kislotalarini gidrogenlash uchun kukunsimon va turg'un katalitik tizimlar, texnologik jarayonlarni va gidrogenlash katalizatorlarini matematik modellashtirish usullari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini yog' va moylardagi yog' kislotalarini gidrogenlashning innovatsion katalizatorlarini ishlab chiqish va modellashtirish, yangi avlod katalizatorlarida o'simlik moylarini katalitik gidrogenlash texnologiyasini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda zamonaviy fizik, kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil usullaridan (IQ, GCX, YQX va boshqalar) hamda olingan tajriba ma'lumotlarini matematik qayta ishlash usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

katalizatorlarning gidrogenlash xususiyatlarini shakllantirishda eng maqbul va samarali promotorlar hamda qo'shimchalar sifatida palladiy, rodiy, ruteniy, reniy, germaniy, qalay va vanadiylarni qotishma massasining 0,05-2,50% dan ko'p bo'lmagan miqdorda ekanligi ilmiy asoslangan va eksperimental jihatdan isbotlangan;

nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida paxta moyining yog' kislotalarini gidrogenlash uchun katalizatorni tanlash va samaradorligini baholash tizimi ishlab chiqilgan, paxta moyidagi uchglitseridlarning to'yinmagan yog' kislotalarini to'yintirish kinetik o'zgarishlari tenglamalari asos qilib olingan, natijada maqsadli gidrogenlangan yog'larni ishlab chiqarishning texnologik optimal parametrlari ilmiy asoslangan;

yuqori sifatli katalitik gidrogenlangan yog'larni ishlab chiqarish uchun eng maqbul texnologik sharoitlar: harorat 180 °C, bosim 100 kPa va xomashyoning hajmiy tezligi 1,2-1,5 soat⁻¹ ekanligi isbotlangan;

trans-izomerlangan yog' kislotalarining minimal miqdori (5,0-7,0 %) va dito'yinmagan kislotalarining miqdoriy tarkibi 25,0-27,0 % bo'lgan oziq-ovqat yog'laridan foydalanishda mahsulotlarning yuqori sifat va ozuqaviy qiymatini ta'minlashi ilmiy asoslangan;

nikel-mis asosidagi qo'shimchali katalizatorlarda o'simlik moylari yog' kislotalarini gidrogenlashning texnologik sharoitlarini optimallashtirish jarayonlari asoslangan, natijada yog' va moylarning yog' kislotalarini gidrogenlash texnologiyasining jarayonlari va katalizatorlari modeli asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maqsadli ozuqaviy salomas olishni ta'minlovchi, yuqori gidrogenlash xususiyatiga ega paxta moyi yog' kislotalarini gidrogenlashning optimal nikel-mis katalizatorlari nisbati va miqdorlari aniqlangan;

paxta moyining yog' kislotalarini gidrogenlashning texnologik jarayonlari va katalitik tizimlarini matematik modellashtirish tenglamalari aniqlangan;

optimallashtirish va matematik modellashtirish orqali paxta moyining yog' kislotalarini nikel-mis asosidagi qo'shimchali katalizatorlarda gidrogenlashning optimal texnologik sharoitlari aniqlangan;

yog' va moylarni samarali katalizatorlarda gidrogenlash texnologiyasini takomillashtirishga tegishli me'yoriy texnologik hujjatlar shakllantirilgan va

tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlarda va tajribalarda olingan ma'lumotlar natijalarini baholash zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullarini qo'llash, matematik ishlov berish usullaridan foydalanish, ishlab chiqarish miqyosida tajriba va sinovlarni o'tkazish hamda ularni amaliyotga joriy etish bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qo'shimchalar saqlagan nikel-mis katalizatorlarida moylarni gidrogenlashning nazariy tushunchalarini kengaytirish, katalitik tizimlarning gidrogenlash xususiyatlarini shakllantirishda qo'shimchalarning o'rni va ahamiyatini aniqlash, gidrogenlash jarayonlarini modellashtirish uchun tenglamalarni ishlab chiqish va ilmiy asoslanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nikel-mis katalizatorlari tarkibidagi promotorlovchi metallarning optimal miqdorini aniqlash, yangi katalitik tizimlarda paxta moyini gidrogenlashning optimal texnologik usullari uchun matematik modellashtirish tenglamalarini yaratilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'simlik moylari yog' kislotalarini nikel-mis asosli qo'shimchali katalizatorlarda gidrogenlash jarayonini takomillashtirilgan texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar asosida:

paxta moyini kukunsimon katalizatorida gidrogenlash texnologiyasi "Sardoba oil group" MChJ ishlab chiqarish korxonasi joriy qilingan (Texnologik ko'rsatmalar 10.01.2024 y). Natijada, yangi texnologik ishlanmalar asosida gidrogenlangan paxta moyining sifati va ozuqaviy xavfsizligini ta'minlanish imkonini bergan;

paxta moyini gidrogenlash uchun qo'shimchalar sifatida rodiy, vanadiy, ruteniy, palladiy, reniy, germaniy va qalay qo'shilgan turg'un nikel-mis-alyuminiy qotishmali katalizatorlar "Xonrod invest" MChJ ishlab chiqarish korxonasi joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yog'-moy sanoati korxonalar uyushmasining 06.06.2024-yildagi KC/3-1184-son ma'lumotnomasi). Natijada, paxta moyini gidrogenlash texnologiyasida dastlabki katalizatorlarning faolligi va gidrogenlash xususiyatlarini 75-85% ga oshirish imkonini bergan;

ishlab chiqarish sharoitida turg'un kukunsimon katalizatori ishtirokida, tarkibida 5,0-7,0% trans-izomerlangan yog' kislotalarini saqlagan oziq-ovqat va yuqori qattqlikda gidrogenlangan yog'larni ishlab chiqarish texnologiyasi "Sardoba oil group" MChJ ishlab chiqarish korxonasi joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yog'-moy sanoati korxonalar uyushmasining 06.06.2024-yildagi KC/3-1184-son ma'lumotnomasi). Natijada, yuqori sifatli katalitik gidrogenlangan yog'larni ishlab chiqarish uchun eng maqbul texnologik sharoitlari (harorat 180 °C, bosim 100 kPa va xomashyoning hajmiy tezligi 1,2-1,5 soat⁻¹) ga erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida taqdim etilgan va aprobasiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining chop etilishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shu jumladan 1 ta monografiya, ilmiy nashrlarda 11 ta maqola. Ulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan 8 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan. Xalqaro va respublika ilmiy-

amaliy anjumanlarida 11 ta tezislarni chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 176 betni tashkil qilgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti asoslangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligiva amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Gidrogenlash jarayonlari, nazariy masalalari, katalizatorlar, qo'shimchalar va promotorlar, modellashtirish usullari”** nomli birinchi bobida moylar va yog'larni katalitik gidrogenlash nazariyasi masalalari, moylar va yog'larni gidrogenlash katalizatorlari, dispers va kukunsimon katalizatorlar, turg'un katalizatorlarning qo'llanilishi, katalitik tizimlarning aktivatorlari va promotorlarini baholash, texnologik jarayonlarni modellashtirish, matematik modellarni qurish usullari, an'anaviy modellarning xususiyatlarini baholash to'g'risida ma'lumotlar bayon qilingan. Axborot manbalarini tahlil qilish va baholash asosida ushbu dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari shakllantirildi.


Dissertatsiyaning **“Katalizatorlarni tadqiq qilish uchun qurilmalar, qo'llaniladigan ob'ektlar tavsifi, fizik-kimyoviy tadqiqot usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Ilmiy va eksperimental tadqiqotlar olib borish usullari batafsil yoritilgan. Turg'un qotishmali katalizatorlar ishtirokida oqim sharoitida paxta yog'ini gidrogenatsiyalanishini o'rganish sxemasi 1-rasmda ko'rsatilgan kolonkali reaktorli yuqori bosimli laboratoriya qurilmasida o'tkazildi.



1-rasm. O'simlik moylarini gidrogenlash uchun laboratoriya qurilmasining prinsipial texnologik sxemasi:


1- moy uchun sig'im; 2- moy o'lchagich; 3- termometr; 4- nasos-dozator;
5- H₂ baloni; 6- vodorod isitgich; 7- moy isitgich; 8- quvurli reaktor; 9- manometrlar; 10- separator-yig'gich; 11- tomchi ajratgich; 12- vodorod hisoblagichi; 13- PSR-108 potensiometri; 14- PSI-09 potensiometri

Optimal tarkibda promotorlar bilan promotorlangan turg'un nikel-mis-alyuminiy katalizatorlarni sinovlarini kattalashtirilgan gidrogenlash qurilmasida olib bordik (2-rasm). Paxta yog'ini turg'un nikel-mis asosli qo'shimchali katalizatorlarda gidrogenlash jarayonlarini to'g'ridan to'g'ri oqim usulida bosimsiz shisha reaktorli qurilmada tajribalar o'tkazildi (3 rasm).



2-rasm. Yuqori vodorod bosimi ostida o'simlik moylarini gidrogenlash uchun kattalashtirilgan qurilmaning prinsipial texnologik sxemasi

1- moy uchun o'lchagich; 2- nasos; 3- nasos-dozator; 4- isituvchi aralastirgich; 5- moy isitgich; 6- ishqor eritmasi uchun sig'im; 7- natriy tripolifosfat eritmasi uchun sig'im; 8- reaktor; 9- reaktor; 10- manometrlar; 11- yog' qopqoni; 12- vodorod tozalagich; 13- yuqori bosimli separator; 14- kengaytirgich; 15- resiver; 16- sovutgich; 17- kompressor; 18- gidrogenlash uchun yig'gich; 19- gidrogenizat uchun nasos; 20, 21- sarf o'lchagichlar; 23- o'zgartirgich




3-rasm. Bosimsiz reaktorli gidrogenlash qurilmasining texnologik sxemasi

1-termometr; 2- xom ashyo uchun sig'im; 3- o'lchov byuretkasi; 4- nasos-dozator; 5- vodorod balloni; 6- reduktor; 7- gaz hisoblagich; 8- N₂ uchun tozalash qurilmasi; 9- shisha reaktor; 10- gidrogenizat uchun sig'imlar; 11- patruboklar; 12- shtativ.

Dissertasiyaning uchinchi bobi "Yog'larning gidrogenlashda innovasion katalizatorlarni tadqiq qilish (o'rganish, aniqlash) va baholash hamda ushbu yo'nalishda nazariy g'oyalarni kengaytirish" da paxta moyini innovasion katalizatorlarda gidrogenlash texnologiyasini tadqiq qilish natijalari taqdim etilgan.

Gidrogenlash jarayoni kinetikasining eng muhim masalalaridan biri bu reaksiya tartibini aniqlash hisoblanadi. Shu maqsadda stasionar qotishma katalizatorlarda 200 °C haroratda, vodorod bosimi 300 kPa, vodorod sarfi 60 soat⁻¹ va paxta moyining har xil hajmiy tezligida bir qator gidrogenlash tajribalari o‘tkazildi.

№3, №6, №8 va №10 katalizatorlari ishtirokida olingan natijalar 4-rasmda “gidrogenizatning yod soni – kontakt vaqti” koordinatalarida keltirilgan.



4-rasm. Paxta moyini chuqur gidrogenlashda № 3(1), №6(2), №8(3) va №10(4) katalizatorlar bilan kontakt vaqtiga bog‘liqligi

4-rasmdan ko‘rinib turibdiki, moyning to‘yinmaganlik darajasining kontakt vaqtiga bog‘liqligi ikkita chiziqli uchastkada ifodalangan bo‘lib, bu paxta moyining o‘rganilayotgan katalizatorlarda to‘yinish jarayoni linol va olein radikallari uchun nol tartibli kinetik tenglamalar bilan tavsiflanishidan darak beradi, grafikdagi siniqning mavjudligi esa jarayonning boshida linol kislota radikallarining ustuvor to‘yinishini ko‘rsatadi.

Rodiyning nikel-mis-alyuminiy katalizatorining faolligiga ta‘sirini o‘rganish uchun boshlang‘ich sifatida nikel: mis nisbati = 3:1 bo‘lgan nikel-mis-alyuminiy qotishmasi olingan.

Tajribalar 200 °C haroratda, vodorod bosimi 700 kPa, vodorod uzatish hajmiy tezligi 60 soat⁻¹, moyni uzatish hajmiy tezligi 1,10 soat⁻¹ da olib borildi. Yod soni 109,1 bo‘lgan rafinasiyalangan paxta moyi gidrogenlandi. Olingan ma‘lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Nikel-mis-alyuminiy katalizator faolligiga rodiiy ta‘siri

Qotishmadagi rodiiy miqdori, %	Gidrogenizatning o‘rtacha yod soni, % J ₂	Faollik, (ΔY.s.)
0,00	67	0,42
0,15	64	0,45
0,35	60	0,43
0,50	57	0,52
0,75	54	0,55
1,00	53	0,56

Qotishmaga rodiiy kiritilishi katalizatorning faolligini oshiradi. Faollikning sezilarli o‘sishi rodiiy miqdori 0,50% gacha kuzatiladi. Qotishmadagi rodiiy miqdorining yanada ortishida katalizatorning faolligi sezilarsiz ortadi. Shunday qilib, o‘rganilganlar orasida eng faol katalizator bo‘lib 0,50% rodiiy qo‘shimchali №8 katalizator hisoblanadi.

Turg'un katalizatorlariga germaniy qo'shilishining rolini o'rganish katta qiziqish uyg'otdi.

Ilmiy ishda nikel: mis nisbati 3:1 bo'lgan nikel-mis-alyuminiy qotishmasiga 0,1-2,0% miqdorida germaniy qo'shimcha sifatida qo'shilgan. Ushbu katalizatorlarda yod soni 107,1 bo'lgan paxta moyini gidrogenlash 200°C haroratda, 300 kPa vodorod bosimida va 1,0 soat⁻¹ hajmiy tezlikda bir necha tajribalar bajarildi. Olingan ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan bo'lib, ulardan ko'rinib turibdiki, germaniy qo'shimchasi, katalizator faolligini oshirishga olib keladi va qotishma tarkibidagi promotorning 0,50 % miqdorigacha faollikning jadal o'sishi kuzatiladi.

2-jadval

Germaniyaning nikel-mis-alyuminiy katalizatorining faolligiga ta'siri

Qotishmadagi germaniy miqdori, %	Gidrogenizatning o'rtacha yod soni, % J ₂	Faollik (ΔY.ch.)
0,0	70	0,37
0,1	65	0,42
0,3	61	0,46
0,5	57	0,50
1,0	54	0,53
1,5	53	0,54
2,0	50	0,57

Rodiy bilan promotorlangan katalizatorlarda gidrogenlash jarayonining selektivligi vodorod bosimi 500 kPa, moyini uzatish hajmiy tezligi 1,50 soat⁻¹ va vodorodni uzatish hajmiy tezligi 60 soat⁻¹ da o'rganildi. №3 va №8 katalizatorlarda o'tkazilgan solishtirma tajribalar natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

№3 (promotorlanmagan) va №8 (rodiy bilan promotorlangan) katalizatorlarda paxta moyini gidrogenlash jarayonining selektivligi.

Harorat, °C	Gidrogenizat yod soni, % J ₂	Yog' kislova tarkibi, %			Selektivlik koeffitsieti, %
№3 katalizator					
140	70,9	32,6	29,6	37,8	63,6
160	71,3	31,8	28,5	39,7	64,2
180	68,4	30,9	27,1	42,0	65,0
200	65,2	31,4	28,4	40,2	65,9
220	61,6	30,7	27,4	41,9	66,8
№8 katalizator					
140	72,4	36,0	31,5	32,5	52,4
160	63,3	34,3	33,8	31,9	60,7
180	64,9	32,5	34,6	32,9	67,7
200	60,8	31,7	36,3	32,0	72,8
220	56,4	31,5	38,1	30,4	75,6

Jadvaldagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, haroratning jarayon selektivligiga ta'siri turli katalizatorlar uchun turlicha bo'ladi. №3 promotorlanmagan katalizator ishtirokida selektivlik kam o'sadi, 0,5 % rodiy bilan promotorlangan katalizator esa selektivlik oshadi, jumladan eng jadal o'sish 180-200 °C da kuzatiladi.

Bitta metall bilan promotorlangan nikel-mis-alyuminiy qotishma katalizatorlarini o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlarning umumiyliги o'rganilayotgan promotorlarni promotorlangan katalizatorida gidrogenlanishning selektivligi pasaygan holda quyidagi qatorlarga joylashtirish imkonini beradi:

rodiy > palladiy > promotorsiz > germaniy

Promotorlangan katalizatorlarning izomerlanish qobiliyatini o'rganish ma'lumotlari asosida o'xshash qatorlar ham tuzildi:

rodiy > palladiy > promotorsiz > germaniy

Nikel-mis-alyuminiy katalizatorining faolligini oshirish va davomiy barqarorligini ta'minlash maqsadida ushbu qotishmaga rodiyning doimiy miqdorini (0,50 %) saqlagan holda, "rodiy + reniy" metallar tizimi bilan promotorlandi.

Katalizatorning faolligi o'rganish tadqiqotlari, yod soni 111,7 bo'lgan paxta moyini gidrogenlash, 200°C haroratda, 300 kPa bosim ostida, vodorodni uzatish 60 soat⁻¹ hajmiy tezlikda va moy uzatish 1,50 soat⁻¹ hajmiy tezligida amalga oshirildi


Olingan ma'lumotlar (4-jadval) shuni ko'rsatadiki, nikel-mis-rodiy-alyuminiy katalizatoriga Ni:Cu=1:1 nisbatda va qotishmadagi rodiyning doimiy miqdorida (0,50%) reniy qo'shilishi dastlabki katalizator faolligining oshishiga olib keladi, bu holatda qotishmadagi qo'shimchani 1,50 % gacha miqdori kuzatiladi.

4-jadval

Nikel-mis-alyuminiy katalizatori faolligiga rodiy va reniy qo'shimchalarining ta'siri

Qotishmadagi miqdori, %		Gidrogenizatsiyaning o'rtacha yod soni, % J ₂	Faollik, ΔY.ch.
Rodiy	Reniy		
	0,00	64	0,47
0,50	0,50	55	0,56
0,50	1,00	51	0,60
0,50	1,50	47	0,64
0,50	2,00	46	0,64
0,50	2,50	47	0,64
0,50	3,00	48	0,63

Nikel-mis-rodiy-alyuminiy katalizatorning promotorlovchi va solishtirma promotorlovchi ta'sirlari (5-rasm) reniyni 1,50% miqdorigacha oshadi, so'ngra ular simbat tushadi.



5-rasm. Nikel-mis-rodiy-alyuminiy katalizatorida promotorlovchi (1) va solishtirma promotorlovchi (2) samaradorligining reniy miqdoridan bog'liqligi

Promotorlashning eng yuqori samaradorlik ta'siri katalizator tarkibiga quyidagi miqdorlarda promotorlarni qo'shishda kuzatiladi:

0,05 % palladiy + 0,30 % rodiy;	0,5 % rodiy + 0,5 % ruteniy;
0,05% palladiy + 0,50% germaniy;	0,5 % rodiy + 1,5 % reniy;
0,10% palladiy + 1,0 % reniy;	0,5 % rodiy + 2,5 % qalay;
0,7 % palladiy + 2,0 % qalay;	1,0 % germaniy + 1,0 % reniy;
0,5 % rodiy + 1,0 % germaniy;	1,5 % germaniy + 2,5 % qalay.

Ammo, qotishmadagi promotorning (yoki promotorlar tizimining) hatto optimal kontsentratsiyasida ham, hosil bo'lgan katalizatorlarning faolligi tabiiyki, bir xil bo'lmaydi. Faollikning pasayishiga ko'ra, promotorlovchi qo'shimchalarning optimal tarkibiga ega metallar tizimi bilan promotorlangan quyidagi qatorlarga joylashtirilishi mumkin:

**Palladiy+rodiy > germaniy+qalay > rodiy+ qalay >
 rodiy+reniy > palladiy+germaniy > rodiy+germaniy
 rodiy+ruteniy > germaniy+reniy > palladiy+reniy
 palladiy+qalay > promotorlarsiz**

Tadqiqotlar natijasida promotorlarning izomerlash qobiliyatiga ta'siri asosida quyidagi qatorlar shakllantirildi

**palladiy+qalay > rodiy+qalay > palladiy +rodiy >
 rodiy+ ruteniy > germaniy +qalay > palladiy +reniy >
 promotorlarsiz > palladiy+ germaniy > rodiy+ reniy >
 rodiy +germaniy > germaniy +reniy.**


Yuqoridagi tahlillar natijasida eng samarali katalizatorlarni ro'yxatini shakllantirishga imkon berdi:

Faolligi bo'yicha: rodiy; palladiy + rodiy; germaniy + qalay bilan promotorlangan nikel-mis-alyuminiy katalizatorlari.

Selektivligi bo'yicha: rodiy; palladiy + qalay; palladiy + rodiy bilan promotorlangan nikel-mis-alyuminiy katalizatorlari.

Izomerlash qobiliyatiga ko'ra: rodiy; palladiy + qalay; rodiy + qalay bilan promotorlangan nikel-mis-alyuminiy katalizatorlari.

Rodiy; palladiy+rodiy; palladiy+qalay; rodiy+qalay; germaniy +qalay bilan promotorlangan nikel-mis-alyuminiy katalizatorlarining yuqorida keltirilgan ro'yxati shuni ko'rsatadiki, eng samarali promotorlovchi qo'shimchalar asosan to'rtta promotor bo'lgan: rodiy (0,05-1,0%); palladiy (0,05-1,0%); germaniy (0,5-2,0%) va qalay (0,5-5,0%).



6-rasm. Reaksiya tezligi doimiysining vaqt bo'yicha o'zgarishi:


1- qaytar zaharlanishda; 2- faollikni tiklashda (zaharsiz keladi); 3- qaytmas zaharlanishda, $\Delta\tau_0$ – zaharlanish davri, $\Delta\tau_{reg}$ – faollik regeneratsiyasi davri

Bu maqsadda tajribalar moyni uzatish $1,1 \text{ soat}^{-1}$ doimiy tezligida, vodorod

barbotaji harorati, bosimi va tezligini ketma-ket o'zgartirib amalga oshirildi.

Promotorlangan 8-raqamli va promotorlanmagan 3-raqamli katalizatorlarda olingan ma'lumotlar 6 va 7 rasmlarda keltirilgan bo'lib, ulardan ko'rinib turibdiki, ko'rsatilgan sharoitlarning jarayon tezligiga ta'siri yuqorida tavsiflangan o'z katalizatorlari uchun xuddi shunday bo'lib qolmaydi.

Haqiqatan ham, faolligi biroz pastroq bo'lgan qayta regeneratsiyalangan katalizatorlarda vodorodning barbotaj tezligi gidrogenlash tezligiga deyarli ta'sir qilmaydi, buning o'rniga u bosimga deyarli to'g'ri mutanosib ortadi. Bu shuni anglatadiki, bunday katalizatorlarda vodorod bo'yicha jarayonning diffuzion to'xtatilishi minimallashtirilgan bo'ladi.



7-rasm. №3 (1,2) va №8 (3,4) katalizatorlarda hamda takroriy (ikkinchi) ishqorlab yuvish (2,4) dan keyin paxta moyini gidrogenlash selektivligiga vodorod hajmiy tezligining ta'siri

Bu xulosa moyning vodorodga nisbatan doimiy hajmiy tezligida (Rn2 300 kPa), lekin turli katalizator balandliklarida o'tkazilgan tajribalarda ham tasdiqlandi (5-jadval).

5-jadval.

Paxta moyining gidrogenlash tezligining birinchi va ikkinchi ishqoriy yuvishdan keyingi nikel-mis-alyuminiy katalizator miqdoriga bog'liqligi

Reaktordagi katalizator qatlamining balandligi, ml	№3 katalizator	№8 katalizator
	Yod sonining pasayishi	
Birinchi ishqorlab yuvish		
112	24	28
225	30	35
270	33	39
450	45	54
675	58	58
Ikkinchi ishqorlab yuvish		
112	20	24
225	23	27
270	24	30
450	29	36
675	33	42

5-jadvaldagi ma'lumotlardan hamda 6- va 7-rasmlardagi grafiklardan ko'rinib turibdiki, paxta moyini gidrogenlash tezligi ham yangi, ham qayta ishqorlab yuvilgan kontaktdan foydalanganda promotorlanmagan katalizator qatlamining balandligiga to'g'ri mutanosib ortadi. Bu shundan dalolat beradiki, bu holda jarayonning cheklovchi bosqichi to'yinmagan birikmalar reaksiyaga kirishuvchi molekularining katalizator sirtiga diffuziyasi hisoblanadi.

To'rtinchi bo'lim "Texnologik jarayonlarini va gidrogenlash katalizatorlarini modellashtirish". Dinamik tizimlarni matematik tavsiflashga zamonaviy yondashuv ularning holatlar fazosida tizimlarni tavsiflashdan iborat. Bunda ko'pincha birinchi farqliklarga (birinchi hosilalarga) nisbatan ruxsat etilgan yakuniy-farqlanadigan va differentsial tenglamalar ishlatiladi. Holatlar fazosida tizimlarni tavsiflash yagona pozitsiyalardan turli tizimlarni – chiziqli, chiziqli bo'lmagan, diskret va uzluksiz tizimlarni ko'rib chiqish imkonini beradi.

Texnologik jarayonlarni optimallashtirish va matematik modellashtirish natijalari, shuningdek, nikel-mis katalizatorlarining tarkibi asosiy gidrogenlash xususiyatlarini o'rnatdi (6-jadval).

6-jadval.

Turg'un nikel-mis-alyuminiy qotishma katalizatorlarining asosiy promotorlari va qo'shimchalarining tavsifi

Promotor, qo'shimcha	Davriy sistemadagi davri va guruhi	Miqdori, % mass	Asosiy vazifasi
Palladiy (Pd)	5, VIII v	0,05... 1,00	Faollik va selektivlikni oshirish
Rodiy(Rh)	5, VIII v	0,05—1,00	Kislotalar trans-izomerlari miqdorini oshirish
Ruteniy (Ru)	5, VIII v	0,05... 1,00	Faollik va selektivlikni oshirish
Reniy (Re)	5, VII v	0,50—2,50	Ish davomiyligini oshirish
Germaniy (Ge)	4, IV a	0,50—2,50	Faollikni oshirish, kislotalar transizomerlari miqdorini kamaytirish
Qalay (Sn)	5, IV a	0,50-2,50	Molekula ichki pereeterifikatsiyasini ta'minlash
Vanadiy (V)	4, VB	0,50-2,50	Kislotalar trans-izomerlari miqdorini kamaytirish

Texnologik parametrlarga (harorat, °C; bosim, kPa; xom ashyo, soat va vodorodni uzatish hajmiy tezligi, soat) qarab paxta moyini katalitik modifikatsiyalashning asosiy qonuniyatlarini tahlil qilish va baholash shuni ko'rsatdiki, gidrogenlash xususiyatlari (faollik, selektivlik, izomerlash qobiliyati, ish uzluksizligi va barqarorligi) katalizatorlar o'rganilayotgan parametrning miqdoriy qiymatining oshishi bilan o'zgaradi

Texnologik parametrlarning ma'lum qiymatlarida eng yuqori natijalarga erishiladi. Katalizatorlarning gidrogenlash xossalari promotorning tabiatiga ham bog'liqligi aniqlangan. Taqdim etilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ba'zi promotorlar va qo'shimchalar asl katalizatorning faolligi va selektivligini oshiradi, boshqalari esa modifikatsiyalangan moyning uchglitseridlaridagi trans-izomerlangan yog' kislotalari tarkibini nisbatan past darajaga kamaytiradi.

Nikel-mis-alyuminiy statsionar qotishma katalizatorlarining asosiy gidrogenlash xususiyatlari matematik modellashtirish asosida o'rganildi. Asl katalizator tarkibidagi promotorlar va qo'shimchalarning asosiy katalitik xususiyatlari aniqlandi (7-jadval).

7-jadval.

Statsionar qotishma nikel-mis-alyuminiy katalizatorlarining gidrogenlash xususiyatlari

Promotorlar, qo'shimchalar	Gidrogenlash xususiyatlari			
	Faollik, Y.s.	Selektivlik, %	Izomerlash qobiliyati, %	Uzluksiz gidrogenlash barqarorligi, soat
Palladiy (Pd)	50-52	88-92	50-52	850-950
Rodiy (Rh)	54-56	88-94	45-55	1000-1050
Ruteniy (Ru)				
Reniy (Re)	48-50	83-85	45-50	1200-1300
Germaniy (Ge)	46-48	75-80	35-40	1000-1200
Qalay (Sn)	44-46	84-86	55-60	850-850
Vanadiy (V)	46-48	85-87	20-25	900-950

Katalizatorlarni tizimli umumlashtirishdan so'ng ularning tavsifi 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

Katalizatorlarni tizimli umumlashtirishdan so'ng tavsifi

Katalizator turi	Gidrogenlash xususiyatlari			
	Faollik, Y.s.	Selektivlik, %	Izomerlovchi qobiliyat, %	Uzluksiz gidrogenlash barqarorligi, soat
Kukunsimon	35-45	92-96	30-37	800 – 820
Turg'un	40-57	88-96	35-46	1000 -1200

Yog' kislotalari turlari bo'yicha gidrogenlash tezliklari doimiylari quyidagi tenglamalardan topildi:


$$\Delta K_{\text{Hac}} = \frac{\sum \text{Hac}^{\text{KOH}} - \sum \text{Hac}^{\text{HAc}}}{100} \quad (1)$$

$$\Delta K_{\text{MOH}} = \frac{\sum \text{MOH}^{\text{KOH}} - \sum \text{MOH}^{\text{HAc}}}{100}$$

bunda nach; kon - tegishli yog' kislotalarining uchglitseridlardagi boshlang'ich va yakuniy konsentratsiyalari

8-rasmda ko'rsatilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha to'yinmagan (olein va linol) yog' kislotalarining to'yinishi ketma-ket sodir bo'ladi. Selektiv gidrogenlash jarayonida linol kislota avval olein kislotaga, keyin esa stearin kislotasiga aylanadi. Shu sababli, to'yinmagan yog' kislotalarning o'zgarishining vaqt tartiblarini to'g'ri aniqlash zarur edi.

8-rasmdagi kinetik egri chiziqlardan ko'rinib turibdiki, yog'ni gidrogenlash jarayoni asosan yog' kislotalarining o'zgarishi tugallangan zonalarga bo'lingan holda quyidagi sxema bo'yicha boradi.



8-rasm. Paxta moyin to'yinmagan yog' kislotalarining to'yinish kinetik egri chiziqlari

1- yod soni; 2- linol kislotalari; 3- tsis-olein kislotalari; 4- trans-olein kislotalari; 5- stearin kislotalari; 6- palmitin kislotalari

Egri chiziqli 8 va 9 rasmlarda keltirilgan ma'lumotlar tahlili asosida tsis-olein kislotalari (vaqt 60 dan 420 min gacha) va trans-olein kislotalari (vaqt 120 dan 420 min gacha) uchun ikkinchi zona uchun tenglamalarni keltiramiz. Tsis-olein kislotalari $\tau_1^{tsis} = \tau + 60$ va trans-olein kislotalari - $\tau_1^{trans} = \tau + 110$ uchun yangi vaqt kiritamiz. U holda tenglamalar quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Differensial shakl

$$\frac{d_{\text{цил-ол}}(\tau_1)}{d\tau_1} = -k_3 \tau_1$$

Integral shakl

$$T_{\text{sis-ol.}}(\tau_1^{\text{tsis}}) = T_{\text{sis-ol.}}(0) - k_3 \tau_1$$

$$T_{\text{trans-ol.}}(\tau_1^{\text{trans}}) = T_{\text{trans-ol.}}(0) - k_4 \tau_1^{\text{trans}}$$

$$C_M(\tau)_1 = C_M(0) + k_3 \tau_1^{\text{tsis}} + k_4 \tau_1^{\text{trans}} \quad (2)$$

$$\frac{dC_M(\tau_1)}{d\tau_1} = (k_3 + k_4) \tau_1$$

Beshinchi bo'limda "Turg'un katalizatorlarda belgilangan xususiyatlarga ega gidrogenizatlarni olish"ning natijalari asosida turg'un katalizatorlarda paxta moyini qayta ishlash texnologik jarayonlarini takomillashtirish, oziq-ovqat va texnik maqsadlarda qo'llaniladigan belgilangan xususiyatlarga ega gidrogenizatlarni olish texnologiyasini ishlab chiqish imkonini berdi. Gidrogenlangan oziq-ovqat moylarini olish shartlari o'rganildi. Margarin mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qo'yiladigan talablarga javob beradigan, ko'rsatilgan xususiyatlarga ega bo'lgan gidrogenlangan yuqori izomerlash qobiliyatiga ega bo'lgan selektiv gidrogenlashuvchi katalizatorlar ishtirokida olinishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, rodiy yoki palladiy+rodiy tizimi bilan promotorlangan statsionar katalizatorlar eng yuqori selektivlik va juda yuqori izomerlash qobiliyatini namoyish etadi. Ushbu katalizatorlarning selektivligi va izomerlash qobiliyati boshqa promotorlangan katalizatorlarga qaraganda sezilarli darajada yuqori, shuningdek, nikel-alyuminiy va №3 nikel-mis-alyuminiy qotishma katalizatorlaridan ham yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, 0,15-0,5% rodiy va 0,05-0,10% palladiy va 0,1-0,5% rodiy bilan promotorlangan katalizatorlar ham yuqori boshlang'ich faollikka ega.

Taqqoslash uchun shuni ta'kidlaymizki, promotorlanmagan №2 va №3 qotishma

